



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**



**BUXORO VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKIOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024-yil 1-iyun holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 30 051 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 26 424 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining kamayishi 99,8 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 99,5 foiz ) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-iyun holatiga ko‘ra, birlikda.*

### Faoliyat ko‘rsatayotgan


### Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda



## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil yanvar-may holatiga ko‘ra yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 474 taga kamayganligini ko‘rish mumkin.



## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	449	5,7 %	Buxoro t.	154	7,2 %
Romitan t.	241	8,5 %	Peshku t.	141	8,0 %
G‘ijduvon t.	196	6,3 %	Qorako‘l t.	103	6,8 %
Jondor t.	173	7,0 %	Kogon t.	97	6,0 %
Shofirkon t.	172	9,5 %	Kogon sh.	56	5,1 %
Olot t.	172	14,3 %	Qorovulbozor t.	40	5,7 %
Vobkent t.	164	8,7 %			


2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024- yil 1- iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davriga (30 111 ta) nisbatan 60 taga kamayganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli pasayishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 080 tadan 9 036 taga (kamayish 44 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 935 tadan 3 020 taga (85 taga kamaygan), sanoat – 4 140 tadan 3 887 taga (253 taga kamaygan).

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	7 910	Peshku t.	1 760
G'ijduvon t.	3 091	Kogon t.	1 630
Romitan t.	2 829	Qorako'l t.	1 509
Jondor t.	2 483	Olot t.	1 203
Buxoro t.	2 143	Kogon sh.	1 089
Vobkent t.	1 887	Qorovulbozor t.	705
Shofirkon t.	1 812		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-may holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 116 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 525 ta;
- yirik korxonalar 8 ta.

## Hududlar kesimida



Buxoro sh.	434	6,2 %	Buxoro t.	151	7,9 %
Romitan t.	237	9,1 %	Peshku t.	139	9,0 %
G'ijduvon t.	194	7,0 %	Qorako'l t.	101	8,1 %
Jondor t.	171	7,6 %	Kogon t.	94	6,3 %
Olot t.	170	16,4 %	Kogon sh.	55	5,8 %
Shofirkon t.	169	10,8 %	Qorovulbozor t.	39	6,3 %
Vobkent t.	162	9,6 %			



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- iyun holatiga 26 592 taga yetib, 2023- yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 99,4 foizni tashkil etdi (155 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 34,0 foiz, sanoat – 14,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,2 foiz, qurilish – 9,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,1 foiz, tashish va saqlash – 8,9 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, boshqa turlari – 10,1 foiz.

### Hududlar kesimida


Buxoro sh.	6 952	Shofirkon t.	1 558
G'ijduvon t.	2 755	Kogon t.	1 485
Romitan t.	2 603	Qorako'l t.	1 254
Jondor t.	2 246	Olot t.	1 034
Buxoro t.	1 906	Kogon sh.	956
Vobkent t.	1 679	Qorovulbozor t.	622
Peshku t.	1 542		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 58 tadan 40 taga (kamayish 18 taga), savdo – 884 tadan 561 taga (kamayish 323 taga) kamaydi.



## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	431	6,3 %	Buxoro t.	151	8,0 %
Romitan t.	237	9,1 %	Peshku t.	139	9,0 %
G'ijduvon t.	189	6,9 %	Qorako'l t.	101	8,1 %
Olot t.	170	16,5 %	Kogon t.	94	6,4 %
Jondor t.	170	7,6 %	Kogon sh.	55	5,8 %
Shofirkon t.	169	10,9 %	Qorovulbozor t.	39	6,4 %
Vobkent t.	162	9,7 %			

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (26,1 foiz), G'ijduvon (10,4 foiz), Romitan (9,8 foiz), va Jondor (8,5 foiz) va Buxoro (7,2 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	6 893	Peshku t.	1 536
G'ijduvon t.	2 736	Kogon t.	1 475
Romitan t.	2 592	Qorako'l t.	1 242
Jondor t.	2 241	Olot t.	1 030
Buxoro t.	1 899	Kogon sh.	944
Vobkent t.	1 671	Qorovulbozor t.	612
Shofirkon t.	1 553		



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2024- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Romitan t.	597
Jondor t.	345
Kogon t.	290
G‘ijduvon t.	254
Shofirkon t.	235
Buxoro t.	226
Vobkent t.	214
Peshku t.	191
Qorovulbozor t.	184
Buxoro sh.	157
Qorako‘l t.	152
Olot t.	140
Kogon sh.	35



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	823
G'ijduvon t.	462
Kogon t.	335
Jondor t.	334
Romitan t.	330
Vobkent t.	301
Buxoro t.	273
Shofirkon t.	221
Peshku t.	201
Qorako'l t.	192
Olot t.	180
Kogon sh.	159
Qorovulbozor t.	76



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,8 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,6 foiz), 3,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (kamayish 93,7 foiz), 2,6 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'tgan yilga nisbatan 104,0 foiz) va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 111,8 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	782
Romitan t.	240
Shofirkon t.	199
Jondor t.	195
Buxoro t.	177
Peshku t.	169
G'ijduvon t.	136
Kogon t.	129
Qorako'l t.	97
Vobkent t.	97
Kogon sh.	97
Olot t.	74
Qorovulbozor t.	57



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 51,2 foiz ulushni tashkil etib, pasayish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,5 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,1 foizga ko'paygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,4 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,6 foizni tashkil etdi.

522



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

672

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

1 255


Bino va  
inshootlar qurish



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	2 279
G'ijduvon t.	1 106
Romitan t.	769
Jondor t.	685
Buxoro t.	680
Vobkent t.	537
Peshku t.	532
Qorako'l t.	531
Shofirkon t.	523
Kogon t.	429
Olot t.	417
Kogon sh.	370
Qorovulbozor t.	178



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 008 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 61,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda pasayish sur'ati 96,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 101,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 11,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 111,2 foizni tashkil etdi.

1 079

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 404

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 553

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Buxoro sh.	852
G'ijduvon t.	216
Romitan t.	157
Vobkent t.	135
Jondor t.	122
Buxoro t.	110
Olot t.	105
Qorako'l t.	103
Shofirkon t.	88
Kogon sh.	84
Peshku t.	79
Kogon t.	68
Qorovulbozor t.	47



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 100,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'ahlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 17,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq- ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 82,4foiz ulushini tashkil etdi.

380

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 786

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar






2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	157
Vobkent t.	22
Kogon sh.	22
Jondor t.	19
Buxoro t.	17
Romitan t.	16
Peshku t.	16
G'ijduvon t.	16
Shofirkon t.	16
Olot t.	11
Qorako'l t.	10
Kogon t.	9
Qorovulbozor t.	5



2024- yil 1-iyun holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammlar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 18,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 27,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 122,4 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 53,6 foizini tashkil etib, kamayish sur'ati 94,7 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	364
G'ijduvon t.	74
Buxoro t.	70
Jondor t.	49
Shofirkon t.	44
Kogon sh.	41
Romitan t.	36
Vobkent t.	33
Peshku t.	30
Qorako'l t.	28
Kogon t.	19
Olot t.	11
Qorovulbozor t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 729 ta yoki 90,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,3 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etib, kamayish sur'ati 5,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,4 foizini tashkil etib, kamayish sur'ati 15,4 foizni tashkil etdi;

11

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



19

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash




777

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	512
Jondor t.	344
Romitan t.	313
G'ijduvon t.	310
Vobkent t.	232
Buxoro t.	168
Shofirkon t.	129
Peshku t.	111
Kogon t.	104
Kogon sh.	53
Olot t.	34
Qorako'l t.	32
Qorovulbozor t.	22



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 7,9 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 103,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 102,8 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 104,5 foizni tashkil etdi;


havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 200,0 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot**  
2024- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.



2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'liyundilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	401	7,2 %	Shofirkon t.	123	10,1 %
Romitan t.	208	8,8 %	Olot t.	98	19,8 %
Jondor t.	153	7,6 %	Kogon t.	81	7,0 %
G'ijduvon t.	139	6,7 %	Qorako'l t.	66	9,3 %
Vobkent t.	137	11,2 %	Kogon sh.	36	6,0 %
Peshku t.	133	10,1 %	Qorovulbozor t.	35	6,3 %
Buxoro t.	126	8,8 %			



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 26 592 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 20 699 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 33,1 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 12,5 foiz, qurilishda – 10,7 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	5 550	Shofirkon t.	1 221
Romitan t.	2 360	Kogon t.	1 161
G'ijduvon t.	2 061	Qorako'l t.	706
Jondor t.	2 009	Kogon sh.	602
Buxoro t.	1 431	Qorovulbozor t.	556
Peshku t.	1 320	Olot t.	494
Vobkent t.	1 228		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 24 taga, axborot va aloqa sohasida 4 taga kamaygan.


## Hududlar kesimida

Qorako'l t.	25	7,6 %	Kogon sh.	2	2,2 %
Olot t.	17	5,6 %	Vobkent t.	1	1,0 %
Buxoro sh.	10	1,4 %	Qorovulbozor t.	1	5,6 %
Buxoro t.	6	2,3 %	Romitan t.	1	1,1 %
G'ijduvon t.	5	2,2 %	Jondor t.	1	1,0 %
Kogon t.	4	2,2 %			

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1-iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,9 foizni tashkil etadi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari kamayish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (88,9 foiz), axborot va aloqa (82,3 foiz), qurilish sohalari (87,7 foiz), tumanlar kesimida esa – G'ijduvon (97,0 foiz), Buxoro shahar (88,5 foiz), Qorovulbozor (78,3 foiz) va Shofirkon (88,1 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>707</b>	Vobkent t.	<b>105</b>
Qorako'l t.	<b>329</b>	Jondor t.	<b>100</b>
Olot t.	<b>305</b>	Shofirkon t.	<b>89</b>
Buxoro t.	<b>259</b>	Romitan t.	<b>88</b>
G'ijduvon t.	<b>226</b>	Peshku t.	<b>74</b>
Kogon t.	<b>179</b>	Qorovulbozor t.	<b>18</b>
Kogon sh.	<b>151</b>		

2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Olot t.	55	23,9 %	Kogon sh.	17	8,9 %
G'ijduvon t.	50	10,9 %	Jondor t.	17	13,6 %
Shofirkon t.	45	19,0 %	Qorako'l t.	10	4,9 %
Romitan t.	28	19,9 %	Kogon t.	9	6,9 %
Vobkent t.	24	7,1 %	Peshku t.	6	4,3 %
Buxoro sh.	23	3,8 %	Qorovulbozor t.	3	7,7 %
Buxoro t.	19	9,6 %			


2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra 2023- yilning mos davriga nisbatan 36 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 960 tadan 968 taga (o'sish 8 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 746 tadan 775 taga (o'sish 29 ta), sanoatda – 719 tadan 717 taga (kamayish 2 taga) sonining sezilarli kamayishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>601</b>	Kogon sh.	<b>192</b>
G'ijduvon t.	<b>458</b>	Romitan t.	<b>141</b>
Vobkent t.	<b>339</b>	Peshku t.	<b>140</b>
Shofirkon t.	<b>237</b>	Kogon t.	<b>131</b>
Olot t.	<b>230</b>	Jondor t.	<b>125</b>
Qorako'l t.	<b>204</b>	Qorovulbozor t.	<b>39</b>
Buxoro t.	<b>197</b>		




## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

2024- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida

Buxoro sh.	21	Qorovulbozor t.	2
Olot t.	3	Jondor t.	2
Kogon t.	3	Kogon sh.	1
Shofirkon t.	3	Vobkent t.	1
Qorako‘l t.	3	G‘ijduvon t.	1
Buxoro t.	3		


2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 153,0 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 48 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 14,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 11,7 foiz), Xitoy (ulushi 13,0 foiz), Turkmaniston (ulushi 17,5 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	176	Qorako'l t.	12
Buxoro t.	26	Shofirkon t.	11
Kogon t.	23	Jondor t.	9
Romitan t.	16	Vobkent t.	7
Olot t.	15	Peshku t.	6
Kogon sh.	14	Qorovulbozor t.	4
G'ijduvon t.	13		

*2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda*

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 149 tasi qo'shma korxonalar, 183 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda*

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

109	Buxoro sh	67
8	Buxoro t	18
12	Kogon t	11
6	Kogon sh	8
5	G'ijduvon t	8
7	Romitan t	9
3	Jondor t	6
3	Shofirkon t	8
7	Qorako'l t	5
2	Vobkent t	5
4	Peshku t	2
3	Qorovulbozor t	1
14	Olot t	1



2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Buxoro viloyat statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: (65) 223-83-20